



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 11



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Рахбар Муртазаева МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚА ДАВЛАТЛАРИДА ИЛМ-ФАННИНГ ФЕМИНИЗАЦИЯЛАШУВИ.....	5
2. Тўлқин Алиев ТОШКЕНТ ШАҲРИДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	16
3. Нодирабегим Ваисова ВКЛАД Ю.Ф. БУРЯКОВА В ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИИ СОГДИАНЫ.....	25
4. Sevara Elmurodova MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR.....	32
5. Risqiniso Maxmudova O'ZBEKISTON SSRDA ALIFBO SIYOSATINING GEOSIYOSIY MAQSADLARI.....	38
6. Mohira Matnazarova ILK TEMIR DAVRIDA OROLBO'YI KO'CHMANCHI AHOLISINING IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTI.....	44
7. Nargiza Raxmatova O'RTA OSIYO XALQLARI MUSIQA MADANIYATI TARIXIDAN.....	48
8. Фаррух Разаков СТАНОВЛЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ И ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ С ГОСУДАРСТВОМ ШЕЙБАНИДОВ.....	54
9. Hilola Normamatova CHOCHDA ZARB ETTIRILGAN G'ARBIY TURK XOQONLIGI TANGALARIDAGI DINIY- SIYOSIY RAMZLAR.....	63
10. Нодира Холмонова РОССИЯНИНГ ХИВА ХОНЛИГИДА ЮРИТГАН ИҚТИСОДИЙ - ПУЛ СИЁСАТИ (айрим тадқиқотлар мисолида).....	67
11. Rashid Xolmurodov JIZZAX VILOYATIDA TURIZMNING RIVOJLANTIRILISHI.....	72
12. Davlatbek Qudratov O'ZBEKISTON VA BANGLADESH: ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA IQTISODIY VA GUMANITAR HAMKORLIK ISTIQBOLLARI.....	79



Davlatbek Qudratov,
Tarix fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.
Guliston davlat universiteti,
qudratovdavlatbek1984@gmail.com

O‘ZBEKISTON VA BANGLADESH: ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA IQTISODIY VA GUMANITAR HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

For citation: Davlatbek Kudratov. UZBEKISTAN AND BANGLADESH: PROSPECTS FOR ECONOMIC AND HUMANITARIAN COOPERATION WITHIN THE OIC FRAMEWORK. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 11.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17966948>

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston va Bangladesh o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik, savdo aloqalari va gumanitar sohalaridagi tashabbuslar Islom hamkorlik tashkiloti doirasida tahlil etiladi. IHTning mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishdagi o‘rni hamda ikki davlat o‘rtasidagi istiqbolli yo‘nalishlar yoritiladi. O‘zbekiston va Bangladesh o‘rtasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy yo‘nalishda, balki xalqlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, ma’naviy yaqinlik va do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilayotgani aniq misollar bilan ko‘rsatib o‘tiladi. O‘zbekiston va Bangladesh IHT doirasida o‘zaro hamkorlikni chuqurlashtirish orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ko‘rib chiqayotganligi, energetika, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi qo‘shma tashabbuslar ikki davlat o‘rtasidagi barqaror rivojlanishga xizmat qilayotgani tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Bangladesh, IHT, iqtisodiy hamkorlik, gumanitar aloqalar, savdo, investitsiya, xalqaro munosabatlar.

Давлатбек Кудратов,
Доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Гулистанский государственный университет, qudratovdavlatbek1984@gmail.com

UZBEKISTAN I BANGLADESH: PERSPEKTIVY EKONOMICHESKOGO I GUMANITARNOGO SOTRUDNICHESTVA V RAMKAX ORGANIZACII ISLAMSKOGO SOTRUDNICHESTVA

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется экономическое сотрудничество, торговые отношения и гуманитарные инициативы Узбекистана и Бангладеш в рамках Организации исламского сотрудничества (ОИС). Отмечена роль ОИС в укреплении региональной интеграции и перспективные направления взаимодействия между двумя странами. На конкретных примерах показано, что сотрудничество между Узбекистаном и Бангладеш служит не только экономическому и политическому направлению, но и укреплению взаимного уважения,

духовной близости и дружбы между народами. Анализируется, что Узбекистан и Бангладеш рассматривают новые экономические возможности, углубляя сотрудничество в рамках ОИС, а совместные инициативы в сфере энергетики, образования и здравоохранения служат устойчивому развитию двух стран.

Ключевые слова: Узбекистан, Бангладеш, ОИС, экономическое сотрудничество, гуманитарные связи, торговля, инвестиции, международные отношения.

Kudratov Davlatbek,
PhD in History, Associate Professor
Gulistan State University, qudratovdavlatbek1984@gmail.com

UZBEKISTAN AND BANGLADESH: PROSPECTS FOR ECONOMIC AND HUMANITARIAN COOPERATION WITHIN THE FRAMEWORK OF THE ORGANIZATION OF ISLAMIC COOPERATION

ABSTRACT

The article analyzes the economic cooperation, trade relations and humanitarian initiatives between Uzbekistan and Bangladesh within the framework of the Organization of Islamic Cooperation. The role of the OIC in strengthening regional integration and promising areas between the two countries are highlighted. It is shown with concrete examples that cooperation between Uzbekistan and Bangladesh serves not only in the economic or political direction, but also to strengthen mutual respect, spiritual closeness and friendship between peoples. It analyzes that Uzbekistan and Bangladesh are considering new economic opportunities by deepening their cooperation within the OIC, and that joint initiatives in the energy, education and healthcare sectors serve sustainable development between the two countries.

Index Terms: Uzbekistan, Bangladesh, OIC, economic cooperation, humanitarian relations, trade, investment, international relations.

Dolzarbligi:

Globalashuv va xalqaro hamkorlik jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida madaniy diplomatiya, xalq diplomatiyasi hamda ta'lim sohasidagi aloqalarni kengaytirish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston va Bangladesh o'rtasidagi madaniy, ma'rifiy va diplomatik munosabatlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston va Bangladesh o'rtasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy yo'nalishda, balki xalqlar o'rtasida o'zaro hurmat, ma'naviy yaqinlik va do'stlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, madaniyat, san'at, adabiyot, ta'lim va yoshlar siyosati sohalaridagi o'zaro tashabbuslar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, O'zbekistonning Islom Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi faol ishtiroki, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ma'rifat va yoshlar siyosatiga oid tashabbuslar, O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshirish bilan birga, Bangladesh kabi islom olamiga mansub davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur omillarni inobatga olgan holda, O'zbekiston va Bangladesh o'rtasidagi madaniy-diplomatik aloqalarning tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari hamda bugungi istiqbollarini ilmiy tahlil etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

O'zbekiston va Bangladesh o'rtasidagi aloqalar so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarilmoqda. IHT (Islom hamkorlik tashkiloti) doirasidagi hamkorlik ikki davlatning iqtisodiy, savdo va gumanitar sohalarida o'zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirishiga zamin yaratmoqda. O'zbekiston va Bangladesh o'rtasida madaniy aloqalar rasman 1992 yildan boshlangan. Bu yil O'zbekiston mustaqilligini olganidan keyin diplomatik munosabatlar o'rnatildi va ikki mamlakat o'rtasida madaniy, ilmiy va ta'lim sohalarida hamkorlikni rivojlantirish uchun asos solindi[1].

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

O'zbekiston va Bangladesh o'rtasidagi diplomatik, madaniy va ma'rifiy aloqalar mustaqillikdan so'ng yangi bosqichga ko'tarilgan bo'lib, ushbu masala bir qator ilmiy manbalarda, diplomatik hujjatlarda hamda ommaviy axborot vositalarida yoritilgan. 1990-yillardan boshlab ikki davlat o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy hamkorlik jarayonlari, elchixonalar faoliyati, do'stlik jamiyatlari tashkil etilishi, hamda savdo-sanoat ko'rgazmalari o'z davrida ilmiy-tahliliy maqolalarda qisqacha yoritilgan.

Biroq, mavjud tadqiqotlarda O'zbekiston va Bangladesh o'rtasidagi **madaniy diplomatiya, xalq diplomatiyasi va ta'lim sohasidagi hamkorlikning bosqichma-bosqich rivojlanishi** kompleks tarzda, tizimli yondashuv asosida chuqur o'rganilmagan. Shu sababli, ushbu maqola mazkur yo'nalishdagi munosabatlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini, shuningdek, ularning xalqaro hamkorlik tizimidagi o'rnini tahlil qilishga qaratilgan.

Maqolani yozishda tarixiy-tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Tarixiy-tahliliy metod yordamida O'zbekiston va Bangladesh o'rtasidagi diplomatik va madaniy aloqalarning shakllanishi hamda ularning rivojlanish bosqichlari (1990-yillardan 2020-yillargacha) ketma-ketlikda o'rganildi.

Qiyosiy metod asosida ikki davlat o'rtasidagi madaniy hamkorlikning boshqa mintaqaviy davlatlar bilan olib borilgan diplomatik faoliyat bilan o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi.

Tizimli yondashuv orqali madaniy diplomatiya, xalq diplomatiyasi, ta'lim, san'at va axborot almashinuvi kabi yo'nalishlar yagona hamkorlik tizimi sifatida ko'rib chiqildi.

Shuningdek, maqola tayyorlanishida rasmiy manbalar, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi axborotlari, Islom Hamkorlik Tashkiloti materiallari, arxiv hujjatlari hamda matbuotda e'lon qilingan tahliliy maqolalardan foydalanildi.

Тадқиқот натижалари:

1996 yil 11 aprelda O'zbekistonda Bangladesh Halq Respublikasining elchixonasi ochildi. Ikki davlat o'rtasida madaniy almashinuvlar, san'at va adabiy tadbirlar ilk marta tashkil etildi. Masalan, 1996 yil 28 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi halqaro madaniy-ma'rifiy aloqalar Milliy assoatsiyasida Bangladesh halq respublikasining O'zbekiston Respublikasi Favqullodda muxtor elchisi Sayid Xoja Sharji Xasan janoblari iltimosiga binoan O'zRHAMA rahbariyati tomonidan qabul qilindi[2]. O'z navbatida Bangladesh elchisi Sayid Xoja Sharji Xasan janoblari Bangladesh halqi Buxoriy, Termeziy, Beruniy, Nakshbandiy kabi ulug' allomalar yurti bo'lgan O'zbekiston halqi bilan azaldan do'stona rishtalarga ega bo'lganligi haqida to'htalib, Bangladesh xukumiati O'zbekiston bilan har tomonlama do'stona munosabatlarni rivojlantirishga juda katta ahamiyat berayotganini, vaqtincha uzilib qolgan aloqalarni halq diplomatiyasi yo'li bilan tiklash va rivojlantirish maqsadida tashrif buyurganligini ta'kidladi. Shuningdek, elchi 1997 yil may oyida birinchi marta Toshkentda Bangladesh savdo-sanoat mahsulotlari ko'rgazmasi namoyi qilinishi va va ko'rgazmani tashqil qilishda HAMA ko'magi zarur ekanligini qayd qilib o'tdilar[3].

Ushbu yil HAMA va Bangladesh Halq Respublikasi jamoa tashkilotlari o'rtasida xamkorlikka erishildi; "O'zbekiston-Bangladesh", "Bangladesh-O'zbekiston" do'stlik jamiyatlarini tashkil etildi. Tomonlar ikki mamlakat, adabiyot va san'at arboblari vakillarining amaliy hamkorligini tashkil qilishda ko'maklashishga kelishdilar[4]; Tomonlar ikki davlat madaniyat va san'at haftaligini har yili O'zbekiston Respublikasi va Bangladesh Halq Respublikasi mustaqilligi kunlari arafasida o'tkaziladigan bo'lishdi; tomonlar Bangladesh, O'zbekiston yozuvchi, shoir, publitsist hamda olimlarining badiiy asarlarini, monografiya va maqolalarini tarjima qilish va o'z mamlakatlarida nashr etishga ko'maklashishni ham ta'kidlab o'tdilar; tomonlar turli hil axborot va fotomateriallar bilan almanishuvni, fotoko'rgazmalar va rassomlar asarlari ko'rgazmasini tashkil etish imkoniyatini o'rganib chiqildi; tomonlar hattoki har yili o'quvchilarning ta'tili davrida o'quvchilar delegatsiyasini ayriboshlanishini ham ko'rib chiqdilar; tomonlar madaniyat arboblari va badiiy asarlari, monografiya va maqolalarini tarjima qilish va o'z mamlakatlarida nashr etishga ko'maklashishga kelishib olindi.

1997 yil mart oyida HAMAda Bangladesh Halq Respublikasi mustaqilligining 26 yilligi ko'tarinki ruhda tashkil etildi. O'zbekistonning talaba yoshlari o'rtasida "Siz Bangladeshni

bilasizmi?” mavzuida viktorinalar tashkil qilingan bo‘lib, g‘oliblarga shu kuni maxsus sovg‘alar topshirildi[5].

1997 yil 14-19 mayda ilk marotaba Toshkentda HAMA ko‘magi bilan Bangladesh savdo-sanoat mahsulotlari ko‘rgazmasi namoyish qilindi. Ko‘rgazmada oziq – ovqat mahsulotlari(choy, yog‘ va boshqalar), chinni (servislar), fayans (rakovina, unitaz, vanna) mahsulotlari, kiyim-kechak, to‘qimachilik mahsulotlari, charm-attorlik, poyafzallar va shuningdek, farmasevtika mahsulotlari namoyishi bo‘lib o‘tdi.

2000-yillar — Ta‘lim va madaniyat sohasidagi hamkorlik kengayishi. O‘zbekistonda Bangladeshning madaniy markazlari ochila boshladi, til kurslari tashkil etildi; Bangladesh tomonidan o‘zbek tili va adabiyoti o‘rganilishiga qiziqish ortib bordi[6].

2010 yillar — Yoshlar va san‘at festivallari Yoshlar o‘rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlash maqsadida qator festivallar va forumlar tashkil etildi; San‘at va musiqa bo‘yicha qo‘shma loyihalar boshlandi[7].

2020-yillar — Madaniy hamkorlikning yangi bosqichi. 2025 yilda Toshkentda Bangladesh yoshlar festivali tashkil etildi; Har ikki mamlakat universitetlari va madaniy muassasalari o‘rtasida aloqalar kengaydi, adabiy va san‘at sohasidagi qo‘shma tadbirlar ko‘paydi.

O‘zbekistonning Islom Hamkorlik Tashkiloti bilan hamkorligi so‘nggi yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi. Mazkur hamkorlik diniy bag‘rikenglik, ta‘lim va ma‘rifat, inson huquqlari, yoshlar masalalari va axborot xavfsizligi kabi dolzarb sohalarni qamrab olmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar xalqaro miqyosda tan olinib, amaliy natijalar bermoqda. IHT doirasidagi faol hamkorlik O‘zbekistonning xalqaro nufuzini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi 2015 yil 14 dekabrda Islom Hamkorlik Tashkilotining (IHT) yangi Nizomiga qo‘shildi. Mazkur Nizom 2016 yil aprel oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilindi. O‘zbekiston tomoni IHTni muqaddas islom dinining tinchlik va taraqqiyot omili sifatida tan oladigan nufuzli xalqaro platforma sifatida e‘tirof etadi. Shu boisdan, O‘zbekiston IHTning mustahkamlanishi va o‘zaro munosabatlarning izchil rivojlanishidan manfaatdor hisoblanadi[8].

O‘zbekiston rasmiy delegatsiyalari IHT sammitlari va Tashqi ishlar vazirlari kengashining yillik sessiyalarida muntazam ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda IHT bilan hamkorlik faollashib, aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. Shu nuqtai nazardan, 2016 yil 18–19 oktabr kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan IHT Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev mazkur sessiya ochilish marosimida so‘zlagan nutqida O‘zbekistonning IHT Tashqi ishlar vazirlari kengashiga raislik davridagi (2016 yil oktabridan 2017 yil iyuligacha) ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Davlat rahbari ta‘kidlaganidek, “Ta‘lim va ma‘rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo‘l” mavzusining 43-sessiya kun tartibi asosi sifatida qabul qilinishi chuqur ramziy ma‘noga egadir. Ushbu g‘oya islom ta‘limotiga xos bo‘lgan “Beshikdan qabrgacha ilm izla” degan mashhur hadisga hamohang bo‘lib, O‘zbekiston tomoni ilgari surgan tashabbuslar ilm-fan va ma‘rifatni rivojlantirishga qaratilganini ko‘rsatadi.

2017 yil 10 sentabr kuni Qozog‘istonning Astana shahrida bo‘lib o‘tgan IHTning Fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammitida ham Prezident Shavkat Mirziyoev ma‘rifat va ilm sohasida amaliy tashabbuslarni ilgari surdi. Bu tashabbuslar IHT doirasidagi hamkorlikning mazmun-mohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, 2019 yil 7–8 oktabr kunlari Toshkent shahrida IHT Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiyasining “Tinchliksevar, demokratik jamiyatlar barpo etish va barqaror rivojlanish yo‘lida yoshlar huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilishning ahamiyati” mavzusidagi yillik 6-seminari bo‘lib o‘tdi. Anjuman ishtirokchilari O‘zbekiston Prezidenti tomonidan BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida ilgari surilgan Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya qabul qilish tashabbusini qo‘llab-quvvatladilar[9].

Komissiya ushbu anjumanda yoshlar masalasiga alohida e‘tibor qaratdi. Bu bejiz emas, chunki IHTga a‘zo mamlakatlarda yoshlar aholining asosiy qismini tashkil etadi. Yosh avlodni

yetarlicha qo‘llab-quvvatlamaslik jamiyatda barqarorlik va osoyishtalikka tahdid tug‘dirishi mumkin.

Anjuman yakunida “Toshkent deklaratsiyasi” qabul qilinib, unda IHTga a‘zo davlatlar tomonidan yoshlar huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslar bayon etildi.

O‘zbekiston bilan IHT o‘rtasidagi hamkorlikning yana bir muhim jihati — Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi va IHT Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiyasi o‘rtasidagi yaqin munosabatlardir. Shu doirada, 2020 yilda bo‘lib o‘tgan IHT mamlakatlari axborot agentliklari uyushmasining onlayn-forumi muhim ahamiyat kasb etdi. Saudiya Arabistoni Qirolligi axborot vaziri, Milliy axborot agentliklari uyushmasi Ijroiya kengashi raisi Majid bin Abdulloh al-Qasabiy rahbarligida o‘tkazilgan mazkur forumda pandemiya sharoitida axborotga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortishi ta‘kidlandi[10]. Forumda ommaviy axborot vositalari jamiyatda haqqoniy va tezkor axborot tarqatish, feyk yangiliklar va yolg‘on ma‘lumotlarga qarshi samarali kurashishda muhim o‘rin tutishi qayd etildi. Anjuman yakunlariga ko‘ra, Qo‘shma bayonot qabul qilindi. Unda milliy axborot agentliklari tezkor va ishonchli axborot yetkazishda yanada faol bo‘lishi lozimligi, shuningdek, bu yo‘nalishda hamkorlikni kuchaytirish zarurligi ta‘kidlandi.

Xulosalar:

Masalaga xulosa tarzida quyidagilarni ta‘kidlash maqsadga muvofiqdir:

Kelgusida O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA) ham ushbu tashabbuslarda ishtirok etishi kutilmoqda. Axborot maydonida haqqoniy ma‘lumot yetkazishdagi tajribasi O‘zbekistonning xalqaro imijiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston va Bangladesh IHT doirasida o‘zaro hamkorlikni chuqurlashtirish orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochmoqda. Energetika, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi qo‘shma tashabbuslar ikki davlat o‘rtasidagi barqaror rivojlanishga xizmat qilmoqda.

Иктибослар/ Сноски/References:

[1] Ўз МА, фонд – М-2, рўйхат – 1, иш – 194, варақ – 26.

[2] Ўз МА, фонд – М-2, рўйхат – 1, иш – 194, варақ – 1.

[3] Ўз МА, фонд – М-2, рўйхат – 1, иш – 194, варақ – 6.

[4] Ўз МА, фонд – М-2, рўйхат – 1, иш – 194, варақ – 27.

[5] Ўз МА, фонд – М-2, рўйхат – 1, иш – 194, варақ – 16.

[6] Ўз МА, фонд – М-2, рўйхат – 1, иш – 194, варақ – 8.

[7] Фулом Мирзо. Ўзбекистон ва Ислон ҳамкорлик ташкилоти: ҳамкорлик йўлида яна бир қадам // Электрон ресурс: <http://www.insonhuquqlari.uz/uz/news/ozbekiston-va-islom-hamkorlik-tashkiloti-hamkorlik-yolida-yana-bir-qadam>. Мурожаат санаси: 31.05.2025.

[8] Saad Sanad, H. A., Kassem, M. and N. Scott (2010), Tourism and Islamic Law, in Noel Scott, Jafar Jafari (ed.) Tourism in the Muslim World (Bridging Tourism Theory and Practice, Volume 2, Emerald Group Publishing Limited, pp.17 – 30.

[9] Низомова, Г. Ш. Сотрудничество Узбекистана и ОИС: состояние и перспективы // Молодой ученый. 2022. No 49 (444). С. 512-515.

[10] Халқ сўзи 1992, 17 сентябр



Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000